

BOLALARDA GELMENTOZ KASALLIGINI DAVOLASH VA UNING
OLDINI OLISH CHORALARI

Muallif: Uraimova Robiya O'tkirbek qizi

Qo'qon Universiteti Andijon filiali Tibbiyot fakulteti

Pediatriya ishi 1-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA; Mazkur maqolada gijja kasalligining turlari, sabablari, belgilari va uning oldini olish choralari haqida so'z yuritiladi. Gijja – asosan a'zolarida, to'qimalarda va hatto qonda joylashgan. Ba'zi gijjalarning lichinkalari qon tizimi orqali organizm bo'ylab harakatlanib, har qanday a'zoga tasodifiy birikishi mumkin. Agar tuxumlar ko'p bo'lsa, butun organizmni zararlashi mumkin. Me'da-ichak tizimning turli bo'linmalarida yashovchi gijjalar. Ichak parazitlarining 100 ga yaqin turi va ichakning har bir qismi uchun o'nlab tur mavjud. Ingichka ichakda askaridlar, antilostlar, keng tasmalilar va boshqa ularning «qarindoshlar»i yashaydi. Ingichka ichak kichik tasmali ostritsalar va boshqalar bilan «yashash joyini bo'lishadi». Mamlakatimizda 60 ga yaqin gijja turlari keng tarqalgan va ularning har biri uchun tegishli dorilarni tanlash kerak. Odatda shifokorlar gelmintlarning turiga qarab 10 turdagi dori va ularning analoglarini qo'llashadi. Ushbu dorilar bemorning tanasiga yengil detoksikatsiya qilish xususiyatiga ega. JSST ma'lumotlariga ko'ra, har yili taxminan 3 milliard odam gijjalar bilan zararlanadi. Enterobiozdan 1,2 milliard, ankilostomozdan 0,9 milliard, trixotsefalyozdan (qilbosh gijjadan) 0,7 milliard odam aziyat chekadi, bu esa rasmiy statistikadir.

Ba'zi parazitlar miya, ko'z qovoqlari, suyak iligiga kirib borib, u yerda 30 yilgacha yashashi mumkin.

АННОТАЦИЯ; В данной статье рассматриваются виды, причины, симптомы и профилактика гельминтозов. Глисты в основном локализуются в органах, тканях и даже в крови. Личинки некоторых глистов могут перемещаться по организму с током крови и прикрепляться к любому органу. Если яиц много, они могут поражать весь организм. Глисты обитают в различных отделах

желудочно-кишечного тракта. Существует около 100 видов кишечных паразитов, и десятки видов паразитируют в каждом отделе кишечника. Аскариды, гельминты, широкий лентец и другие их «родственники» обитают в тонком кишечнике. Тонкий кишечник «делит свою среду обитания» с малыми лентецами, страусами и другими.

В нашей стране распространено около 60 видов глистов, и для каждого из них необходимо подобрать соответствующие препараты. Обычно врачи используют 10 видов препаратов и их аналоги, в зависимости от вида гельминта. Эти препараты оказывают мягкое детоксикационное действие на организм пациента. По данным ВОЗ, ежегодно глистами заражаются около 3 миллиардов человек. 1,2 миллиарда человек страдают энтеробиозом, 0,9 миллиарда — анкилостомидозом и 0,7 миллиарда — трихоцефалёзом (аскаридозом), и это официальная статистика.

Некоторые паразиты могут проникать в головной мозг, веки, костный мозг и жить там до 30 лет.

ANNOTATION; This article discusses the types, causes, symptoms and prevention of worm disease. Worms are mainly found in organs, tissues and even in the blood. The larvae of some worms can move throughout the body through the blood system and attach to any organ at random. If there are a lot of eggs, they can damage the entire body. Worms that live in different parts of the gastrointestinal system. There are about 100 species of intestinal parasites and dozens of species for each part of the intestine. The small intestine is inhabited by ascarids, anthelmintics, broad tapeworms and their other "relatives". The small intestine "shares its habitat" with small tapeworms, ostriches and others. About 60 types of worms are widespread in our country, and for each of them it is necessary to select the appropriate drugs. Usually, doctors use 10 types of drugs and their analogues, depending on the type of helminths. These drugs have a mild detoxification effect on the patient's body. According to WHO, about 3 billion people are infected with worms every year. 1.2 billion people suffer from enterobiasis, 0.9 billion from hookworm, and 0.7 billion from

trichocephalosis (roundworm), and this is official statistics. Some parasites can penetrate the brain, eyelids, and bone marrow and live there for up to 30 years.

Kalit so'zlar;

Gijjalar turlari, gijjalarga qarshi dorilar, gijjalari bor bolgan bemorlar uchun parxez taomlar, gijja kasalini oldini olish choralari, gijja kasalligini davolash usullari.

Ключевые слова:

Виды рвоты, противорвотные средства, диета для больных рвотой, меры профилактики рвоты, методы лечения рвоты.

Keywords: Types of vomiting, anti-vomiting drugs, diet for patients with vomiting, measures to prevent vomiting, methods of treating vomiting.

Kirish.

Bola organizmi o'sib rivojlanish davrida bo'lib, tashqi muhit ta'sirlariga juda sezgir hisoblanadi. Shu sababli u turli infeksiyon va parazitlar kasalliklarga tez chalinadi. Shulardan eng keng tarqalgani — gijja kasalliklari (gelmintozlar) hisoblanadi. Bu kasalliklar dunyo bo'yicha eng ko'p uchraydigan parazitlar kasalliklardan biri bo'lib, har yili millionlab bolalar gijja bilan zararlanadi. Ota-onalar farzandlari sog'lig'iga qanchalik e'tibor qaratishmasin, qo'llari tozaligini qancha nazorat qilishmasin, ularni gijjalardan (ostritsalardan) himoya qilish deyarli imkonsiz. Bolalar tashqi muhitni o'rganishadi, tabiat ularda qiziqish uyg'otadi. Ular hamma narsaga teginib, uni tatib ko'rishni istaydilar. Baliq va yovvoyi hayvonlar va qushlarning go'shtini yeydiganlar, xonaki sut ichidaginalarda trixinellyoz va difillobotrioz bilan kasallanish xavfi mavjud.

Bolalarda gijja borligining alomatlarini aniqlash uchun bir qator belgilar mavjud. Parazit organizmlarning ko'plab turlari mavjud, ammo bolalarda ular ko'proq uchraydi:

- Askaridalar. Ular ko'pincha ichak va o'pka kasalliklariga sabab bo'ladi.
- Ostritsalar. Ularning organizmda bo'lishi turli ichak va immun reaksiyalarga olib kelishi mumkin.

Global miqyosidagi ahamiyati;

Ostritsalarga qaraganda askaridalarni chiqarish qiyinroq, chunki urg'ochisi har kuni deyarli 250 ming tuxum qo'yadi. Hech qachon xalqona usullarga ishonmaslik yoki

dorixonadan birinchi duch kelgan vositani sotib olish kerak emas - albatta mutaxassisga murojaat qiling.

Bu bolalarning organizmida uchrab boradigan hamma gijja turlari ham emas. Dunyoda jami 300 dan ortiq turdagi gelmintlar mavjud. Sanab o'tilgan ikki turdan tashqari, yana 5 tur keng tarqalgan.

Emizikli bolalarda, tug'ruq paytida onasidan gijja tuxumlari va lichinkalari o'tgan bo'lsa, hayotining bir necha haftasidan keyin simptomlar kuzatilishi mumkin. Odatda, simptomlar tana vaznining yo'qligi, ko'p so'lak oqishi, toshmalar, rangparlik, ko'z osti ko'karishi, qabziyat ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bola doimo bezovtalanadi, qichqiradi, yomon uxlaydi va ovqatlanadi. Qichqiriq chidab bo'lmas darajada bo'lishi mumkin, bola esa bu jarayonda ko'karib ketadi. Eng osoni, bolalarda gijja alomatlari sezilsa, najasini vizual tekshirish yo'li bilan gijja borligini aniqlashdir. Ammo ko'pincha oddiy ko'z bilan gijjalar, ayniqsa ularning tuxumlari ko'rinmaydi, shuning uchun gelmint izlari bor-yo'qligini aniqlash uchun axlat va qon tahlillarini topshirish mumkin. Shu bilan bir qatorda bolaning holati va xulq-atvorini diqqat bilan kuzatish ham muammoni aniqlashga imkon beradi.

Gijja kasalligini kelib chiqish turlari;

Zamonaviy jamiyatda gijjalar hali ham keng tarqalgan. Gijjalar ayniqsa bolalar, ovchilar, baliqchilar va ularning oilalarida, shuningdek, qishloq joylarda yashovchi kishilarda ko'p uchraydi.

Gijjalar — bu bir qator parazit chuvalchanglar bo'lib, hayvon va o'simliklar hisobiga yashaydi, ularning ichida rivojlanadi va ko'payadi. Insonlar ham bundan istisno emas. Faqat bizning mamlakatimiz hududida parazitlarning 60 dan ortiq turli mavjud. Statistika ko'ra, yer sayyorasining har uchinchi insoni qurt-parazitlar tomonidan zararlangan. Taxmin qilinishicha, dunyoda hayoti davomida biron marta gijjasi bo'lmagan kishi yo'q, har bir kishi hech bo'lmaganda bir marta zararlanadi. Gijjalar tuxumi qanday tarqalishi va yuqishining 4 usulini bilishimiz kerak;

- Tuproq va suv orqali — geogelmintoz. Ular qum, tuproq va suvda rivojlanadi, so'ngra inson tanasiga kiradi va u yerda tuxum qo'ya boshlaydi. So'ngra

gijja tuxumlari najas bilan tashqi muhitga ajralib chiqadi va yangi insonni kasallash uchun o'z vaqtini kutadi. Yaxshi yuvilmagan meva va sabzavotlarni iste'mol qilish, iflos qo'llar, taomga chang tushishi insonga geogelmintlar yuqishiga olib kelishi mumkin. Parazitlarning ayrim tuxumlari inson organizmiga oyoq va tovon terisi orqali kiradi.

- To'g'ridan-to'g'ri aloqa orqali. Uy hayvonlari va odamlardagi gijjalar qo'llar, o'yin davomida, qo'shma faoliyat orqali yuqadi.
- Zararlangan hayvonot manbalaridan olingan oziq-ovqat mahsulotlaridan foydalanish — biogelmintoz. Xom va yomon ishlov berilgan go'shtni iste'mol qilish (shashlik, cho'chqa go'shti, go'sht konservalari, uy sharoitida ovlangan va tayyorlangan hayvonlar) va baliq (sushi, quritilgan baliq, baliq konservalari) potentsial xavflidir. Ichak infeksiyasi va biogelmintlar bilan kasallanish ehtimoli mavjud.
- Hasharot chaqishi bilan. Bunday yuqish kam uchraydi. Bunga ichak miazi, kantariaz va skolekiyaz kiradi. Shuningdek, gijja tuxumlari va hasharotlarning lichinkalarini adashtirmaslik kerak, hasharotlar ham shuningdek hayvonlar va inson terisining tagiga lichinka qo'yadi (masalan, gadfly larva).

Og'ir holatlar va asoratlari.

Parazitlar inson tanasida ko'p miqdorda oziqa moddalarini iste'mol qiladi, zaharli moddalar chiqaradi. Bunday holatda bemor immuniteti sezilarli darajada zaiflashadi.

Surunkali kasalliklarning kuchayishi, burun-halqumda turli xil yallig'lanish jarayonlari boshlanishi mumkin. Gaymorit yoki stomatitni standart usulda davolash samarasiz bo'lishi qayd qilinadi. Qizlar va ayollarda bachadon tanasining yallig'lanish jarayonlari, vulvovaginit, vaginozlar boshlanishi mumkin. Bemorda gijjalar miqdori qancha ko'p bo'lsa, ular shunchalik ko'p zararli moddalar ishlab chiqaradi. Bu kattalar va bolalar salomatligi va asab tizimiga salbiy ta'sir qiladi. Zaharlanish oqibatida bosh og'rig'i, bosh aylanishi, bo'g'imlarda og'riq, ko'ngil aynishi kuzatiladi. Bunday holda belgilarni bartaraf etishga qaratilgan choralar vaqtinchalik samara beradi, bir muddat o'tgach, ular yana qayta yuzaga keladi.

Bolalarda asab tizimi faoliyatining buzilishi bezovtalik, befarqlik, agressiya bilan birga kechadi. Agar bola yomon yotsa, tushida gapirsa, qo'rqinchli tushlar ko'rsa, fanlarni o'zlashtirishi tushib ketsa, uni shifokorga ko'rsatish tavsiya etiladi.

Oshqozon-ichak buzilishlari Zararlanganlik jiddiyligiga qarab, biroz ko'ngil aynishi va ich ketishdan tortib surunkali meteorizm, qabziyat, qayt qilish, qovurg'a osti va kindik atrofidagi og'riqlarga qadar farq qiladi. Gijjalar to'qimalarda parazitlik qilganida bunday alomatlar kuzatilmasligi mumkin.

Gijjalarning hayotiy faoliyati mahsulotlari allergenlar sifatida qabul qilinadi. Teri reaksiyalari (toshma, qichima, donachalar, terining quruqlashishi) — bu allergiya boshlanishi bilan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan eng minimal alomatlardan biri.

Astma, rinit, yo'talning kuchayishi kabi umumiy reaksiyalar kuzatilishi ham mumkin. Ba'zida gijja bilan kasallanish soch tokilishi, ularning mo'rt bo'lishi, tovon terisi yorilishi, tirnoqlarning qavatlashishiga olib keladi.

Asoratlari.

Ba'zan xastalik belgilari shifokor va bemorlar tomonidan noto'g'ri talqin qilinadi. Yetarli tajribaga ega bo'lmagan mutaxassis oshqozon-ichak tizimining mavjud bo'lmagan kasalliklarini davolashga kirishishi mumkin. Muammo o'z vaqtida hal qilinmasa, bir qator asoratlar yuzaga keladi.

Tashxislash.

Gijja borligini aniqlashning bir necha yo'li mavjud. Poliklinikada bemorga so'lak, najas va qon tahlili topshirish tavsiya etiladi. Yuqumli parazitlardan shikoyat bo'lganda, infeksiyist va parazitologga murojaat qilinadi. Ularga terapevt, bolalar uchun esa pediater tomonidan yo'llanma berilishi mumkin.

Uy sharoitida bemor o'z salomatligiga tayangan holda xulosa chiqarishi mumkin.

Gijjani davolash.

Bemorlarga mustaqil davolanish tavsiya etilmaydi. Parazit turlari keng tarqalganligi bois, ularning har biri uchun tegishli ta'sir ko'rsatadigan dori vositalarini tanlash kerak. Odatda shifokor gelmintlarning turiga qarab 10 ga yaqin turdagi dori va ularning analoglarini tayinlaydi.

Gijjaga qarshi dorilar qo'llanilishi

Nomi Kasallik

Mebendazol* (Vermoks) Askaridoz, trixinellyoz, strongiloidoz,
enterobioz, ankilostomidoz

Pirantel Enterobioz, askaridoz

Levamisol Askaridoz

Albendazol* Askaridoz, trixinellyoz, strongiloidoz, enterobioz,
trixotsefalez, ankilostomidoz

* — JSST tomonidan tavsiya etilgan.

Gijja tuxumlariga ta'sir qiluvchi ba'zi dorilar katta gijjalarga ta'sir qilmaydi va aksincha. Shuning uchun har bir holatda dori vositasi ko'rsatmalarini diqqat bilan o'qib chiqish tavsiya etiladi. Qayta infeksiyalanish ehtimoli yuqoriligi sababli odatda davolanishni 2-3 marta o'tkazish tayinlanadi.

Oldini olish.

Parazit tuxumlarining organizmga doimiy ravishda qayta tushishi bemorning birinchi martadayoq davolanib ketishiga yo'l qo'ymaydi. Bunday takroriy terapiya kurslari zarur.

Bolalarga gijja bilan zararlanishni oldini olish uchun qovoq urug'larini berish tavsiya etiladi. Urug' tarkibida mavjud bo'lgan kukurbitinlarni parazitlarga nobud qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, ovqatlanishdan oldin qo'llarni tirnoq osti bilan qo'shib yaxshilab yuvish kerak.

Uy hayvonlarini har 3 oyda davolab turish kerak. Eshik dastalarida gijja tuxumlari 6 oygacha saqlanib turishi mumkinligi sababli, bolalar xonasini tez-tez tozalab turish tavsiya etiladi. Qo'l va tana gigiyenasiga mas'uliyatli bo'lish, iste'mol uchun oziq-ovqatni hushyorlik bilan tayyorlash lozim.

Xulosa.

Gijja kasalliklari bolalar salomatligiga katta zarar yetkazadi. Kasallikni erta aniqlash, davolash va gigiyena qoidalariga rioya qilish orqali bu kasallikning oldini olish mumkin. Har bir ota-ona bolalarini toza turmush tarziga o'rgatishi zarur.